

жизни нет стран с низкой производительностью труда, а новые, радикальные инновации возникают только там, где для этого есть интеллектуальный капитал.

#### **Список литературы:**

Калмуратов Б. С. .. Юсупова Ж. К. Организационно-экономический механизм инновационного управления промышленного комплекса// Бюллетень науки и практики. 2022. Т. 8. №3. С. 317-323 <https://doi.org/10.33619/2414-2948/76/35>

Yusupova J.K. Management of the organizational and economic mechanism of innovation as the basis of the digital economy.// Science and education in Karakalpakstan. №2. 2022. 41-44 page

Юсупова Ж. К. Минтақавий иқтисодиётни инновацион бошқарувнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари// Ислом Каримов номидаги Тошкент давлат техника университетида ташиқил этилган “Саноат иқтисодиёти ва менежменти: муаммо ва ечимлар” мавзусидаги III-халқаро илмий-амалий конференция/2023 йил.158-159б

## **PILLACHILIK KLASTERINING IQTISODIY VA IJTIMOIY AHAMIYATI**

*K.S.Kamalov, mustaqil izlanuvchi*

O‘zbekistonning tabiiy iqlim va tuproq sharoiti pillachilikning ozuqa bazasini rivojlantirish uchun har jihatdan qulaydir. Pilla kimmatbaho xom ashyo. U xalq xo‘jaligining juda ko‘p sohalarida ishlatiladi. Tabiiy ipakdan, asosan, eng noyob, juda chiroyli va pishiq gazlamalar to‘qiladi. Biroq keyingi yillarda pillachilikda oqsoqliklar ko‘zga tashlana boshladi. Ozuqa salmog‘i kamayib, ipakchilik sohasi bo‘yicha ishlaydigan zavod-fabrikalar to‘xtab qolishigacha kelib qolgandi. Chetdan olib kelingan ipak qurti urug‘i hisobiga mahsulot tannarxi ortib, faoliyat zarar bilan yakunlanardi. Tutzorlar esa ko‘pincha qarovsiz holda qolib, qisqartirildi, ularning o‘rniga boshqa ekinlar ekildi, uy-joylar qurildi. Baland bo‘yli tut daraxtlarini kesib ketish holatlari kuzatila boshladi. Soha beqaror holga kelib, tizim izdan chiqqa boshlagandi.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida iqtisodiyotimizning barcha sohalariga, xususan, qishloq xo‘jaligiga, yetti xazinaning biri-pillachilikka e‘tibor tubdan o‘zgardi. Prezidentimizning 2017-yil

29-martdagi qarori bilan “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tashkil topdi. Undan so‘ng Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko‘ra tutzor va yakka qator tut daraxtlarining “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tasarrufiga berilishi ipakchilik sohasining tubdan o‘zgarishiga olib kela boshladi. Sohaga investorlarning ham e‘tibori oshdi. Yangi ipak qurti zotlari yaratish uchun xorijlik hamkorlar bilan ishlar boshlandi. Aksariyat qayta ishlash korxonalari modernizatsiya qilinib, to‘quv dastgohlari olib kelindi va tabiiy ipak mato ishlab chiqarish keng yo‘lga qo‘yilmoqda. Tizimda mutaxassislar tayyorlash va qayta tayyorlashga katta e‘tibor berilib, 29 nafar mutaxassis bir oy muddatda Xitoy davlatida malakalarini oshirib qaytishdi. Bugungi zamon soha mutaxassislari oldiga o‘zimizni mahalliy ipak qurti urug‘lari bilan to‘liq ta‘minlash barobarida uni eksport qilish vazifasini qo‘ymoqda. Innovatsiyani keng joriy etish yiliga 2-3-marta pilla yetishtirish imkoniyatini beradi.

Qashqadaryo viloyatida o'tgan yili tajriba tariqasida 1600 quti takroriy ipak qurti boqildi va bu o'zining ijobiy natijasini berdi. Ipak qurti urug'i to'g'ri tanlangani uchun 21 kunda pilla o'rashga kirdi. Qoidalariga rioya qilgan holda boqilsa, mazkur urug'dagi ipak qurti bargni 3-4-marta kam yeydi, - deydi Qarshidagi "Radiant silk" O'zbekiston-Xitoy qo'shma korxonasi rahbari Beshim Tilovov.

- Vohada 8841 gektar tutzorni tasarrufimizga olib, uni ijara shartnomasi asosida bo'lib bersak, avvalo, tutzorlar egali bo'lib, uning payhon kilinishining oldi olinadi. Har 5-10 gektar tutzorlar orasida yoki yonida 12x60 metr o'lchamda qurilgan qurtxonalarda ipak qurti talablar darajasida parvarish qilinganda, har quti ipak qurtidan olinadigan sifatli pilla hosili 70-80 kg. gacha yetishi mumkin. Aytish joizki, pilla yetishtirishda mamlakatimizning dunyo bo'yicha egallab turgan 3-o'rni sohaga joriy etilayotgan keng kamrovli islohotlar natijasida yanada mustahkamlanib, imkoniyatlardan foydalanishning samaradorligi ortadi. Bunda, albatta, olimlarimizning chet ellik kasbdoshlar bilan hamkorlikda tadqiqot olib borishlari, pillachilarimiz esa ish jarayonida ilm-fan yangiliklarini amaliyotga keng tatbiq etib borishlari maqsadga muvofiqdir.

Bunda pillachilikda yetakchi hisoblangan davlatlar:

Xitoy, Hindiston, Vyetnam, Braziliyadagi ilg'or texnologiyalar, yangi zotlarni o'rganib, tajriba almashishni yo'lga qo'yish kerak bo'ladi. Mamlakatimizda pillachilik ravnaqi uchun yetarli imkoniyatlar mavjud. Xalkimiz salomatligi uchun ipak matodan kiyim-kechaklar ishlab chikarishni kengaytirish, onalik tutzorda tut mevasini yetkazish, tibbiyotda tengi yo'q tut sharbati tayyorlashni tashkil qilishning ahamiyati katta. Shuningdek, ipak qurti g'umbagidan yurtimiz axli, qolaversa, eksport maqsadida bo'yoqlar va inson terisini yoshartiruvchi malhamlarni, turli xil kosmetologik vositalarni ishlab chiqarish davr talabidir.

- Pillachilikning yurtimiz iktisodiyotida o'rni katta, - deydi Beshim Tillayev.

- Ipak tolani bo'yash uchun katta maydonlarga tabiiy bo'yoq olinadigan o'simliklar ekishni yo'lga qo'yish bilan mazkur ashyoni chetdan olib kelishga barham beriladi. Buning uchun Hindiston, Turkiya, Eron, Afg'oniston, Braziliya kabi davlatlarda yetishtirilib, tabiiy buyoq uchun ishlatiladigan o'simliklarni o'rganish va olib kelib, o'zimizda yetishtirish hamda ko'paytirish juda muhim. TTTu bilan birga, ipak yigiruv fabrikalarida tabiiy bo'yoq sexlarini tashkil kilish ham zarur.

Prezidentimizning farmoniga muvofiq Guliston tumanidagi "Gulistonagropilla" MCHJ agronomi Mamlakat Chinibekovaning "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi bo'lganligini eshitgach, dilimda u bilan suhbatlashish ishtiyoqi tug'ilgan edi. Soyibobod qishlog'ida taniqli o'qituvchi Xolbo'ta Mirzaqulov oilasida tarbiya topgan. Bolaligi, yoshligi va bugun ham, butun hayoti qishloq xo'jaligi bilan bog'landi. Toshkent qishloqxo'jalik instituti (hozirgi Toshkent davlat agrar universiteti)ning pillachilik bo'limini tugatgach, tumaniga qaytib ishga sho'ng'idi. Hatto turmush qurib, bolalar tarbiyasi bilan shug'ullangan kezlarda ham ishdan ajralmadi. Tumanimiz bo'yicha 158 gektar tutzorlar bor, - deydi "Guliston agropilla" MCHJ rahbari Vohddjon Obidjonov.

- Joriy yilda 438 ta fermer xo'jaligi bilan shartnoma tuzdik, kasanachi pillakorlarimiz ham anchagina. Joriy yilda 1080 kg ipak kurtidan

60 tonnadan ziyod tirik pilla yetishtirish rejalashtirganmiz. Bu ishlarni yo‘lga qo‘yishda Mamlakat opa boshchiligidagi mutaxassislarimiz hozirdanoq ishni boshlab yubordilar.

Sirdaryo shahrida ishga tushirilgan “Agroglobal” MCHJ klaster usulida ish olib bormokda. Bu yerda pilla kayta ishlanib, ipak kalava va undan tayyor mahsulot ham ishlab chiqariladi. Uning asosiy qismi xorijga eksport qilinib, sohadan olinadigan daromad ortadi. O‘z navbatida, pillaboqarlarning manfaatdorligi ta‘minlanadi. Mamlakat opaga o‘xshagan ishiga mehri insonlar bor ekan, gulistonlik pillakorlar albatta o‘z va‘dasini bajaradilar. Buning uchun imkoniyatlar yetarli. Hozirda xonadonlarga joylashtirilgan 12 ta inkubatoriya kerakli jihozlar bilan ta‘minlanib, pilla mavsumiga shay qilib qo‘yildi. O‘tgan yili tajriba tariqasida avgust-sentyabr oylarida xorijdan keltirilgan 14 kuga takroriy ipak qurti boqqan edik, har qutidan 40 kilogrammdan hosil oldik,-deydi M.Chinibekova. Joriy yilda bu natijani yuqori ko‘rsatkichlarga olib chiqish uchun ziroatshunoslar eski tutzorlarni ta‘mirlab, yangi tutzorlar barpo qilishmoqda. Axir ipakchilikda ham ozuqa bazani mustahkamlash eng asosiy vazifalardan biridir. Buni unutmagan pillakor albatta yutadi. Chiqirchiliklar bahorni yangi tashabbus, yangi g‘oyalar bilan kutib olishdi. Rahmatli Sharifboy Iskandarov ham Chiqirchi qishlog‘ida yashab, dehqonchilikdagi halol mehnati tufayli baxt topgan inson edi. Bugun uning farzandi, oddiygina oila bekasi, Yangiariq tumanidagi “Yangiariq agropilla” MCHJ pillachisi Marhaboxon otasining yo‘lini davom ettirmoqda. Tarbiyali va saodatli qiz ziyoli oilaga kelin bo‘lib tushgach ham ota-onasining so‘zlarini unutmadi, to‘g‘risi, onasi Bekposhsha opadan o‘rgangan kasbi-pillachilikni davom ettirdi.

– Turmush o‘rtog‘im Muzaffar Sobirov “Yangiariq agropilla” MCHJning Chiqirchi hududida agronom bo‘lib ishlaydi. U bilan qishloq xo‘jaligi sohasini tanlab yanglishmadik,-deydi ilg‘or pillachi, “Shuhrat” medali sohibasi Marhabo Iskandarova. Yosh oila o‘z iqtisodini ko‘tarish uchun ko‘p o‘ylandi. Nihoyat bir qarorga kelishdi. 2004-yilda yaxshi niyatlar bilan 3 gektar yer olib, ipakchilikka ixtisoslashgan “Shoxruh Muborak o‘g‘li” fermer xo‘jaligini tashkil etishdi. Tez orada tutzorlar yashil rangta burkandi, ipak qurti boqish uchun to‘la imkoniyat yaratildi. Karindosh-urug‘lar birlashib, ipak qurti boqishga kirishimdi. O‘z ishiga mehr qo‘ygan ayol Chiqirchi qishlog‘i ipak boquvchilari uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. U ipak qurti urug‘ini jonlantirib beradigan inkubatoriya qurib ishga tushirdi. Shundan so‘ng sohadagi ishlar yanayam jonlanib ketdi. Ayni paytda “Yangiariq agropilla” MCHJ ga qarashli 2 gektar yerdagi 3200 tup tut nihollari yashil libosga burkangan. Har yili ilg‘orlar safidan o‘rin olayotgan Marhabo o‘tgan yili ham o‘z xonadonida 6 quti ipak qurti boqib, rejadagi 350 kg o‘rniga 360 kg ipak yetishtirib berdi. Pilla mavsumida oiladagi barcha bir tanu bir jonga aylanadi. Oilaboshi Ro‘zigul ona ham “qaynonaman” deb o‘tirmaydi. Mavsum boshlandi deguncha, Muzaffar va Marhaboning farzandlari - Shoxruh, Zufarbek hamda Ezozalar ota-onasiga yordamchi bo‘ladi. Chiqirchining o‘zida 28 ta kasanachi pillachi, 24 ta pillachilik bilan ham shug‘ullanadigan fermer xo‘jaliklari mavjud, - deydi Muzaffar Sobirov.

- Tez orada tut ko‘chatlarini o‘zimizda yetishtirishni ko‘zlayapmiz va xonadonimizdan tashqarida yana bitta jonlantirish inkubatsiyasini qurib ishga

tushirmoqchimiz. Ishlarimiz shunda yanada yaxshiroq natija beradi. Shu kunlarda qishloqdagi barcha ipakchilar o'z xonadonlarini ipak qurti boqishga tayyorlashyapti. Axir ipak qurtiga ham toza, tartibli xonalar zarur. Ayniqsa, Xorazmning havosiga ishonish qiyin. Yomg'ir ko'klam bo'yi yog'masa-da, ayni ipak qurtlari dahaga kirganida, gohida, uch kunlab quyib berishi hech ran emas. Shu bois yangiariqlik pillakorlar mavsumga puxta tayyorgarlik ko'rmoqdalar. Ular bu yil ham pilladan yuqori hosil olib, albatta, o'z so'zlarining ustidan chiqishiga shak-shubha yo'q. O'tgan yilning 9-dekabr kuni yurtimizda birinchi marotaba nishonlangan Qishloq xo'jaligi xodimlari kuniga bag'ishlangan tantanali yig'ilishda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev nutq so'zlab, dala mehnatkashlarini "Mirishkor dehqon va fermerlar, suvchi va irrigatorlar, mexanizator va agronomlar, agrar tarmoq olimlari dunyodagi eng sharaflil kasb egalari. Bu sohaning mehnati qanchalik sharaflil, noni esa, qanchalik totli va shirinligini hamma yaxshi biladi", deya e'tirof etganlari barcha qatori meni ham ruhlantirib yubordi, - deydi, Buxorolik ilg'or fermer Ibrohim To'qliyev. Ayniqsa, yurtimizda joriy yilning "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oya va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" deb nomlanishi olamshumul ahamiyatga ega bo'ldi. Zero, bugun hech bir soha taraqqiyotini ilm- fansiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Ibrohim To'qliyev rahbarligidagi "O'ktam Ibrohim To'qli" fermer xo'jaligi tashkil etilgandan buyon qishloq xo'jalik ekinlaridan mo'l va sifatli hosil yetishtirib, el-yurt to'kinligiga munosib hissa qo'shib kelmokda. Fermerning fidokorona mehnatlari yuksak baholanib, u "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirlandi. Bu esa xo'jalik rahbarining ham, ahil jamoaning ham kuvonchiga quvonch ko'shib, yangi zafarlarga undamoqda. Padari buzrukvorim Badal ota umr bo'yi mexanizatorlik qilib, onam Xursand aya bilan 5 o'g'il, 2 qizni el koriga yaraydigan qilib voyaga yetkazdilar, - deydi fermer.

- Mehnatida fidoyilik ufurib turganligi bois, ularga har doim fayz-baraka hamroh bo'lgan. Bugun biz aka-uka va opa-singillar ota-onamizga munosib farzand bo'lish uchun astoydil mehnat qilayapmiz. Ibrohim To'kliyev o'rta maktabni a'lo baholarga bitirgach, Toshkent qishloq xo'jalik instituti (hozirgi Toshkent davlat agrar universiteti)ning agronomiya fakultetiga o'qishga kirdi. Oliy o'quv yurtini tugatganidan buyon dalada. Kasbini sevgani sababli ishida baraka bor, doimo peshqadamlar safida.

Mamlakatimiz rahbari o'tgan yilning 10-mart kuni xo'jalik dalalarida bo'lib, fermerga tegishli ko'rsatma va tavsiyalar bergan edi. Shu tavsiya va ko'rsatmalar asosida mehnat qilgan jamoa o'tgan yili bug'doyning "Krasnodarskaya-99" navidan gektar boshiga 78 sentnerdan xirmon ko'tarib, davlatga don sotish rejasini 113,4 foizga uddaladi. Natijada ishchi-xizmatchilarga 1-1,5 tonnadan bug'doy tarqatildi. Qishloq va mahalladagi nogironlar, kam ta'minlangan oilalar ham doimo fermer e'tiborida. Ibrohim aka bag'rikeng, saxovatpesha inson. Mening oilamga doimo moddiy yordam berib, qo'llab-quvvatlab turadilar, - deydi duoga ko'l ochib boquvchisini yo'qotgan ayol Robiya Azimova.

- Hosillari bundan-da mo'l bo'laversin. Xo'jalik a'zolari o'tgan yili paxtaning "Buxoro-102" navini ekib, har gektar yerdan 43 sentnerdan, agroilm keng joriy etilgan 6 gektarlik konturdan esa 57 sentnerdan xirmon ko'tardilar. Pilla tayyorlash rejasini 120

foizga bajarildi. Chetdan keltirilgan zotli qoramollar hisobiga chorvachilik barqaror tarmoqqa aylandi. Barcha sohalardagi erishilgan yutuqlar hisobiga xo‘jalik o‘tgan qishloq xo‘jalik yilini 1 milliard so‘m foyda bilan yakunladi.

– Bu ko‘rsatkichlar biz uchun hali chegara emas, - deydi Ibrohim aka.

- Xo‘jaligimiz tashkil etilgan kundan boshlab, bor e‘tiborimizni ilmiy asoslarga tayanib dehqonchilik qilishga, agrokimyoviy tahlillar asosida tuproq unumdorligini oshirishga harakat qilyapmiz. Daromadlarimizni texnika sotib olishga sarflayapmiz. Mo‘l hosil yetishtirishning bosh omili-dehqonchilikka ilm-fan yutuqlarini joriy etish. Ekish rejalashtirilayotgan paytda ekin turi navini to‘g‘ri tanlash ham juda muhim. Buning uchun har bir fermer xo‘jaligida tajriba maydonchasi bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, o‘tkaziladigan agrotexnik tadbirlarning tafsilotini muntazam yozib borish lozim. Shundagina fermerning salohiyati yuksaladi. Kelajakda xo‘jaligimiz qoshida qishloq xo‘jaligi subyektlariga xizmat ko‘rsatish markazi tashkil etish niyatidamiz. Bu borada dastlabki qadamlarni ko‘ydik. Fermer qayta-qayta ta‘kidlaganidek, barcha sohalardagi kabi qishloq xo‘jaligiga ham ilm-fanni joriy etish vaqti keldi. Zero, bu davr taqozosidir.

Mamlakatimizda deyarli barcha sohalarda klaster tizimining joriy etilishi o‘zining ijobiy natijasini bera boshladi. Jumladan, Oltinko‘l tumanida “Oltinko‘l oltin ipagi” mas‘uliyati cheklangan jamiyati klaster tashkiloti maqomini olgach pilladan to‘rt marta hosil olishga erishila boshlandi.

Ma‘lumki avvallari yilda bir marta hosil olinardi -deydi -.Bugungi kunga kelib uchinchi hosil olinyapti. Buning uchun tumanda tutning yangi navi parvarishlanmoqda. Qolaversa, pillachilarga yaratilayotgan sharoit va qulayliklar ham ortmoqda. Masalan, endilikda pillachilar kasanachi hisoblanadi va ularning faoliyati mehnat stajiga hisoblanadi. 2020 - 2022-yilllar klaster tomonidan kasanachilarga 2388 quti pilla tarqatilgan bo‘lib, undan 140 tonna hosil olindi<sup>203</sup>.

#### *Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:*

*O‘zR Prezidentining 24.02.2023-yilgi “Ipakchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha” PQ-73-sonli qarori.*

*O‘zR Prezidentining 01.06.2023-yilgi “Pilla yetishtirish uchun ozuqa bazasini yanada kengaytirish bo‘yicha” PF-85-sonli farmoni.*

*Agrosanoat majmuasi iqtisodiyotini klasterlashtirish (Pillachilik klasteri). 7.5. - 306-310.*

## **МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА НА ОСНОВЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ**

*С.У.Ақбаралиева, магистр 2 курса  
Ташкентский государственный экономический университет*

Современный этап развития человечества характеризуется ускоренным развитием процессов глобализации.

Глобализация в экономическом аспекте означает формирование и развитие

<sup>203</sup> Husanov S. Pilladan uchinchi hosil yig‘ildi. “Xalq so‘zi” 11 Sentyabr 2020 yil.